



Discourse linguistics and its development

Beknozakhon BEKTEMIROVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

discourse,
critical discourse analysis,
pragmalinguistics approach.

ABSTRACT

The concept of discourse encompasses the role of language in communication, its significance in shaping knowledge, power, and meaning within society, and the methods employed to analyze it. The development of discourse theory not only illuminates the interconnections between language and communication and reveals their intricate links with social, cultural, and cognitive processes. This article examines the evolution of the concept of discourse and the analytical methods applied to it, particularly Critical Discourse Analysis (CDA) and pragmalinguistic approaches. While CDA investigates the relationship between language and power, exploring the social and political dimensions of discourse, the pragmalinguistic approach emphasizes the function of language within social contexts and speech acts. Overall, this article offers a deeper examination of discourse and provides new insights into its societal role.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp313-316>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Diskurs lingvistikasi va uning rivojlanishi

Kalit so'zlar:

diskurs,
matn,
tanqidiy diskurs tahlili,
pragmalingvistik yondashuv.

ANNOTATSIYA

Diskurs tushunchasi tilning muloqotdagi roli, jamiyatdagi bilim, kuch va ma'no shakllanishidagi o'rni va tahlilini o'z ichiga oladi. Diskursning rivojlanishi nafaqat til va muloqot, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv jarayonlarning o'zaro bog'liqligini anglashga yordam beradi. Maqolada diskurs tushunchasining rivojlanishi va uni tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar, xususan, Tanqidiy Diskurs Tahlili (TDT) va pragmalingvistik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. TDT til va kuch o'rtasidagi aloqani tahlil qilib, diskursning ijtimoiy va siyosiy rolini o'rganadi, pragmalingvistik yondashuv esa tilning ijtimoiy kontekstdagi funksiyasini va nutq aktlarini aniqlaydi. Ushbu maqola diskursni

¹ PhD student, Fergana State University. Fergana, Uzbekistan. E-mail: beknozabektemirova@gmail.com

yanada chuqurroq tahlil qilish va uning jamiyatdagi o'rnini haqida yangi tushunchalar hosil qilishda yordam beradi.

Лингвистика дискурса и его развитие

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дискурс,
текст,
критический
дискурсивный анализ
(КДА),
прагмалингвистический
подход.

Понятие дискурса охватывает роль языка в коммуникации, его место в формировании знаний, власти и значений в обществе, а также его анализ. Развитие теории дискурса помогает понять взаимосвязь не только языка и коммуникации, но и социальных, культурных и когнитивных процессов. В статье рассматривается эволюция понятия дискурса и методы его анализа, в частности, Критический дискурсивный анализ (КДА) и прагмалингвистический подход. КДА анализирует взаимосвязь языка и власти, изучая социальную и политическую роль дискурса, в то время как прагмалингвистический подход сосредоточен на функции языка в социальных контекстах и актах речи. Эта статья способствует более глубокому анализу дискурса и дает новые представления о его роли в обществе.

KIRISH

Diskurs tushunchasi tilshunoslikdan tortib falsafa va ijtimoiy fanlar kabi ko'p sohalarining diqqat markaziga aylandi. Muloqotning tarkibiy tizimi sifatida ma'lum bo'lib, diskurs faqat tilni emas, balki jamiyatda bilim, kuch va ma'nolarni qanday shakllanishi va ifodalanishini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, diskurs ijtimoiy, madaniy va kognitiv voqeliklarga tilning qanday ta'sir etishi va shakllantirishini o'rganadi. Taniqli tadqiqotchilar Mishel Fuko va Emil Benvenist diskursga eng birinchilardan bo'lib o'z hissalarini qo'shishgan [1, 6]. Diskurs tushunchasi har xil sohalarda turlicha ta'riflanadi.

Ushbu maqola diskurs tushunchasining rivojlanishi va tadqiqotchilar tomonidan unga berilgan izohlar va diskursning qo'llanilishini ko'rib chiqadi. Diskurs rivojlanishini o'rganib, biz til, muloqot va ularning ijtimoiy o'zaro ta'siri haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lamiz.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLAR

"Diskurs" tushunchasi XX asrning 60–70-yillarida yuzaga kelib, dastlab, falsafa, antropologiya va tilshunoslikda qo'llanilgan. Keyinchalik boshqa sohalar ham unga katta qiziqish ko'rsata boshlagan va unga olimlar o'z sohalaridan kelib chiqqan holda ta'riflar berishgan. Shunga qaramay, ularning barchasi asosiy 3ta tushuncha atrofida aylanadi: 1) "foydalanilayotgan" til 2) "gapdan yuqori til" bo'lgan tildan foydalanish 3) til muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy amaliyot shakli [3, b.1].

Ikkinchi ta'rif biroz mulohaza talab bo'lib, u haqida so'z borganda, bunda tilshunoslik tilning nimasini o'rganishini, masalan, u qanday tuzilgan, qanday qoidalarga bo'ysunishini yoddan chiqarmaslik kerak. Xuddi so'zlardan so'z birikmalari hosil bo'lib, birliklar kattalashib borgan sari, diskurs ham "gapdan yuqori til" bo'yicha tahlil qilinganda, bir gapdan ko'p bo'lgan matn, nutq kabi tilning tarkibiy shakllarini o'rganish markaziga aylanadi. Ammo ayni shu o'rinda "diskurs" va "matn" tushunchalarini bir-biridan ajratish

qiyinchilikka sabab bo'ldi. T. Nikolayeva o'zining “Matn tilshunosligi atamalarining qisqacha lug'ati” kitobida diskursga o'zaro bog'langan matn; og'zaki matn shakli; dialog; bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'langan gaplar guruhi; yozma yoki og'zaki nutq mahsuloti deya izohlar bergan [8]. Bu davrda tadqiqotchilar diskurs va matn deyarli bir xil deb ko'rishgan va ma'nodosh so'zlar qatorida foydalanishgan.

Keyinchalik esa “diskurs” va “matn” tushunchalariga bir qator olimlar oydinlik kiritishdi. Bulardan I. Kasavin diskursni tuziladigan matn sxemasiga tayangan holda yuzaga kelishi va kontekstual koordinatalari vaziyatidan (xoh madaniy, xoh lingvistik) kelib chiqqan holda aniqlanishini aytadi [9, b. 53]. V. Demyankov esa “interpretator ko'z o'ngida gavalangan matn” deya diskursni izohlaydi [7, b. 116].

Lingvistik tahlildan keyingi usul bu “Tanqidiy diskurs tahlili” (TDT)dir. U til, jamiyat va kuch o'rtasidagi aloqaga e'tibor qaratadigan tarmoqdir. TDT rivojlanishi uchun Norman Feyrklafning “Til va kuch” kitobi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu kitobida N. Feyrklaf til nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy nazorat ushlanib, kuch qo'llanadigan mexanizm ekanligini aytadi [1, b.3]. Bundan tashqari, u “intertekstuallik” va “interdiskursivlik” tushunchalarini ham kiritdi. Intertekstuallikda matn boshqa matnlar bilan qanday bog'lanishini, interdiskursivlikda esa har xil janr va diskurslar matn ichida qanday munosabatga kirishishini nazarda tutadi [1]. Bu esa diskursning yangi qirralarini kashf etishga yo'l ochdi.

TDTga hissa qo'shgan yana bir olim T.A. van Deyk mental tasvir va ijtimoiy kontekst diskursni shakllantirishini va diskurs va kuch o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishda buni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi. Siyosiy diskurs, media diskurs va irqchilikka tayanib, elit guruhlar ijtimoiy tarkibni diskurs orqali nazorat qilishini o'rganadi [5, b.12].

Keyingi usulga to'xtaladigan bo'lsak, bu diskursni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilishdir. Bunda ijtimoiy kontekstda so'zlovchi qanday lingvistik shakllardan foydalangan holda o'z maqsadini amalga oshirishiga e'tibor qaratadi. Ushbu tahlilda nutq aktlarini muhim rol o'ynashini J. Searl izlanishlarida takidlab o'tgan. [4, b16].

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

“Diskurs” tushunchasi ko'p sohalarining o'rganilish obyektiga aylangan va uning ta'riflari ham xilma-xil. Diskurs nafaqat muloqot uchun xizmat ko'rsatadigan til vositasi emas, balki ma'no, kuch va bilimni jamiyatda qanday shakllanishi va ifodalanishini ko'rsatadigan vosita ekanligiga oydinlik kiritildi.

Tadqiqot davomida “diskurs” va “matn” tushunchalari o'rtasidagi farqlar ajratildi. Dastlab, T. Nikolayeva kabi olimlar bu tushunchalarni bir xil deb hisoblashganiga qaramay, diskurs ustida olib borilgan izlanishlardan so'ng uning ijtimoiy va madaniy kontekstga bog'liq ekanligini aniqlandi. Bu yondashuv diskursni dinamik, kontekstga aloqador hodisa sifatida tushunishga yordam berdi.

Shuningdek, Tanqidiy Diskurs Tahlili (TDT)ning rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etib, tilning jamiyat va kuch bilan aloqasi borligi yaqqol ko'zga tashlandi. Norman Feyrklaf va Teun A. van Deyk kabi olimlar diskursning jamiyatdagi rolini tahlil qilib, til nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy nazorat va kuchni qo'llash mexanizmi sifatida ham ishlatilishini ko'rsatdilar. Feyrklafning “intertekstuallik” va “interdiskursivlik” kabi tushunchalari matnlar va diskurslar o'rtasidagi bog'lanishni yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Diskursni shakllantirishda kognitiv jarayonlar va ijtimoiy kontekstni hisobga olish zarur, zero aynan bular ta'sirida diskursni tahlil qilish mumkin.

Pragmalingvistik yondashuv ham diskursni tahlil qilishda, ijtimoiy kontekstda so'zlovchilarning lingvistik shakllardan foydalanib, o'z maqsadlarini tanlangan nutq

aktlari orqali amalga oshirishini o'rganadi. Shuningdek, ushbu yondashuv tilni ijtimoiy munosabatlarda boshqarilishini kuzatishga yordam beradi.

XULOSA

Diskurs lingvistikasi ijtimoiy hayotning turli jihatlarini o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi. U tilning ijtimoiy funktsiyasini, muloqot jarayonida kontekstning rolini va til orqali kuchni qanday boshqarilishini ochib beradi. Ushbu sohada tadqiqotlar kelajakda diskurs va matnning yanada chuqurroq o'rganilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, diskurs tushunchasi hozirda til, jamiyat va kuch o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishning markaziy elementiga aylandi. TDT va pragmalingvistik yondashuvlarning integratsiyasi, tilning jamiyatdagi kuch va nazorat vositasi sifatidagi rolini yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fairclough, N. (1989). *Language and Power*. Longman.
2. Michel Foucault (1969). *Archaeology of Knowledge and the Discourse* (trans. AM Sheridan Smith, 1972)
3. Schiffrin D., Tannen D. and Hamilton H. E. (eds). (2001). *The Handbook of Discourse Analysis*. – Oxford: Blackwell Publishers. – 851 p.
4. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press. – 203 p.
5. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. Sage Publications. – 308 p.
6. Бенвенист Э. (1974). О субъективности в языке. *Бенвенист Э. Общая лингвистика*. – Москва. – 448 с.
7. Демьянков В.З. (2003). Интерпретация политического дискурса в СМИ. *Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования: учеб. Пособие*, отв. ред. М.Н. Володина. – Москва: Изд-во Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова. – С. 116-133.
8. Николаева, Т. М. (1978). Краткий словарь терминов лингвистики текста. – Москва: Изд-во «Прогресс», 8. – 480 с.
9. Касавин И.Т. (2009). Текст. Дискурс. Контекст. Введение в социальную эпистемологию языка. Замысел книги. *Эпистемология и философия науки*, 19 (1). С. 53–56.